

## **Energiya manbalari balansini muvofiqlashtirish boshqarmasi**

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan respublika bo'yicha kelgusi yil uchun tasdiqlangan tabiiy gazning resurslari va taqsimoti balanslari asosida yillik, choraklik va oylik hajmlarni viloyatlar va yetkazib beruvchilar bo'yicha taqsimlash hamda ularni "O'zGasTrade" AJ, "O'ztransgaz" AJ va Jamiyat tizimidagi korxonalariga ijro etish uchun yuborish;

Hududiy gaz ta'minoti filiallari tomonidan yetkazib beruvchilardan qabul qilingan va iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz hamda gaz ta'minoti korxonalarida sarflanayotgan elektr energiyasi sarfi bo'yicha hisobotlarni umumlashtirish;

har oy, chorak, yarim yillik va yil yakuni bilan gaz ta'minoti korxonalarini tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmlari bo'yicha o'rnatilgan tartibda hududiy gaz ta'minoti filiallari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarni umumlashtirish va aloqador boshqarma-bo'limlar bilan birgalikda Jamiyat bo'yicha umumiy hisobot tayyorlash;

tabiiy gaz, elektr energiyasi hamda o'z extiyoji va texnologik yo'qotishlar bo'yicha keyingi yil uchun prognoz balansini tuzish;

Hududiy gaz ta'minoti filiallaridan aholi va ulgurji iste'molchilar tomonidan keyingi yil uchun kutilayotgan tabiiy gaz, elektr energiyasi iste'moli uchun zarur bo'lgan hajmlarini jamlab, tahlil qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligiga taqdim etilishini ta'minlash.

Iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan neft-gaz va elektr energetika sohasida (tabiiy gaz, elektr energiyasi, neft mahsulotlari va boshqalar) energiya samaradorligini oshirish, ushbu yo'nalishlarda energiya sarfi hajmini pasaytirish sohasida yagona davlat siyosatini olib borish, shuningdek, sohada energiya tejovchi ilg'or texnologiyalar faol joriy etishini rag'batlantirish.